

## XI-XIX ASRLARDA YARATILGAN AYRIM LUG'ATLARDAGI DINIY SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARI

*Xoshimova Husnida Dilshodbek qizi*

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolaning o'rganish obyekti qilib XI- XIX asrlarda yaratilgan ayrim lug'atlardagi diniy so'z hamda so'z birikmalari olingan bo'lib, bu maqolada lug'atlardagi so'zlarga berilgan ayrim izohlardagi xatoliklar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsad qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** «Devoni lug'otit-turk», «At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-turk» , «Muhokamat ul-lug'atayn», «Lug'ati sitta al-sina», diniy birikma

**Annotation:** The object of study of the article is religious words and word combinations in some dictionaries created in the XI-XIX centuries.

**Key words:** "Devoni Lug'otit-Turk", "At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-Turk", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Lug'ati sitta al-sina", religious compound

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi, o'zbek xalqi deyarli bir yarim asr vaqt mobaynida SSSRga qaram bo'lib hayot kechirdi. Hokimiyat tepasidagilar o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan tap tortmadilar. Chor Rossiyasi bosqini paytida Farg'ona general gubernatori Mixail Skobelevning shunday gapi bor edi: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san'ati, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi adoyi tamom bo'ladi...». Ular ayni shunday yo'l tutdilar. Ya'ni xalqimizning madaniyati yo'q qilishga jiddu-jahd bilan kirishdilar. Masalan, ayollar paranjisining olib tashlanishi xalqning madaniyati va e'tiqodini yo'q qilishga qaratilgan bir harakat edi. Mustabid tuzum paytida bunday «harakat»lar juda ko'p qilindi. Ilmli, ziyoli, ma'rifatparvar aholini quvg'in qildilar. Ular, hatto, xalqimizning boy madaniy merosi, ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan noyob tuhfa — kitoblarga ham o'zgartirishlar kiritdilar. Quyida shu va shu kabi masalalarga oid bir qancha ma'lumotlarni ko'rib o'tamiz. Undan oldin lug'at nima ekanini bilib olsak, lug'at biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» («Turkiy so'zlar devoni» — turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan) asarini ko'zdan kechirar ekanman, shunday so'zga ko'zim tushdi jağış (yag'ish) . Bu so'zga 1960-yilda nashr qilingan Solih Mutallibov tahriri ostidagi kitobda islom dinidagi odamlarning

butlarga nazr qilib so'yadigan qurbonliklari hisoblanadi deb izoh berilgan. Buni biz muallifning xatosi deb ayta olmaymiz. Sababi, muallif o'sha vaziyat, o'sha muhaitdan chiqib keta olmagan. Buning imkoni ham yo'q edi. Nashriyotda chop etilayotgan har bir kitob mustabid tuzumning qonunlariga so'zsiz mos kelishi kerak edi va buni mas'ul xodimlar tekshiruvdan o'tkazib, «xato» joylarini «to'g'irlar» edilar. Shukrki, «Devon»ning 2017-yildagi bir jildli nashrida uning izohi «johiliya davrida odamlarning butlarga nazr qilib so'yadigan qurbonliklari», deb to'g'irlangan.

Asrda čiwī (chishi) degan so'z ham keladi. «Čiwī— bir toifa jinlar nomi. Bu shundayki, ikki guruh turklar bir-birlari bilan urushganda, urushdan oldin har qaysi guruh yurtida yashovchi jinlar o'z yurtlaridagi odamlarga ergashib, bir-birlari bilan jang qiladilar. Qaysi yurt jinlari yengsa, ertasiga o'sha yurt shohi ham g'alaba qilgan bo'ladi. Qaysi yurt jinlari yengilsa, ertasiga o'sha yurtdagi shohi ham yengilgan hisoblanadi. Jang qiluvchi guruhlar askarlariga jinlar o'qlari tegishidan qo'rqib, chodirlariga kirib yashirinadilar. Bu turklar orasida tarqalgan urf-odatdir» deyilgan. Bu holat turklarning ba'zi qavmlari orasida ilmsizlik natijasida yuzaga chiqqan bir illat edi deyishimiz mumkin.

Asarning yoxud o'sha davrning o'ziga xos xususiyati sifatida bir narsani inobatga olishimiz mumkin. «Devon»da Alloh so'zini, Xudo so'zini uchratish amri mahol. Asarda Tangri so'zi qo'llanilgan. Masalan, Tēnrigä tapin (Tengriga tapin) — Xudoga qulluq qil (2-jild;192-sahifa);

Tēnri qaryayīna ilinma (Tengri qarg'ag'inga ilinma) — Xudo qarg'ishiga yo'liqma (2-jild; 332-safiha);

Tēnriga jükünč jükündi (Tengriga yukunch yukundi) — Xudo uchun namoz o'qidi (3-jild;385-sahifa)

Tēnri jalavač ižti (Tengri yalavach ijti) — Xudo payg'ambarlarni elchi qilib yubordi (3-jild;443-sahifa)

XIII-XIV asrlarda yaratilgan, muallifi bizga noma'lum bo'lgan «At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-turk» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asarida ham Alloh so'zi o'rnida Tangri so'zi qo'llanilgan. «Devon»da payg'ambar so'zi ma'nosida jalavač so'zini uchratamiz. «At-tuhfa»da esa «payg'anbar» va «elchi» so'zlari qo'llangan. Mening fikrimcha, III-IV asr mobaynida «jalavač»(yalavach) so'zi turli fonetik o'zgarishlarga uchrab, elchi holatiga kelib qolgan. «Devon»da «tājīn» (toyin) so'zi ham keltirilib, uning ma'nosi islom dinida bo'lmaganlarning boshlig'i, bizning muftilarimiz kabi deyiladi. Menimcha, bu ham yuqoridagi so'z kabi bo'lmasa ham ozroq fonetik o'zgarishga uchragan. Bugungi kundagi kohin so'zi ham ayni shu ma'nodagi so'z, u ham islom dinida bo'lmaganlarning boshlig'i.

XIV-XV asrlarda yaratilgan Alisher Navoiy qalamiga mansub bo'lgan «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida uchraydigan diniy so'zlar va so'z birikmalari bizning bugungi kunimizdagi so'zlarga yaqin. Ayniqsa, Is'hoqxon Ibrat (ma'rifatparvar

shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbuotchilaridan bo‘lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan.) qalamiga mansub bo‘lgan «Lug‘ati Sitta al-sina» olti tilli lug‘ati bugungi kunda qo‘llyadigan so‘zlarimizga har tomonlama, fonetik, morfologik jihatdan juda yaqin, bir xil desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sho‘rolar davrida yaratilgan asarlar bugungi kunga kelib o‘z ahamiyatini yo‘qotishi kerak. Bu borada birmuncha sa‘y harakatlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bir yarim asrdan buyon aholi qon-qoniga singib ketgan tuzumni 30 yil ichida tozalab tashlashning o‘zi ham birdaniga sodir bo‘ladigan jarayon emas. Shunisi ahamiyatga molikki, sho‘rolar davrida qancha taqiq, qancha cheklash, qancha zug‘um o‘tkazish sodir bo‘lsa ham, xalqimiz buntunlay o‘zligini yo‘qotib qo‘ygani, dinidan voz kechgani yo‘q. Biz xalqning, kelajak avlodning yana-da zukko, yana-da aqlli bo‘lishi uchun qo‘ldan kelgancha harakat qilmog‘imiz lozim. Bu borada kitoblarning o‘rni beqiyos. Shunday ekan, biz kitoblarni turli fitna-yu bo‘htonlar holi tarzda avlodlarga meros qilib qoldirishimiz kerak. Dinni xalqdan hech qachon ajratib bo‘lmaydi. Ularga dinni to‘g‘ri tushunish uchun sharoit yaratish zarur. Sababi bugungi kunda sodir bo‘layotgan turli diniy ekstremistik harakatlarning asosiy sababi ham aynan shu dinni yaxshi tushunmaslik, uni noto‘g‘ri talqin qilish sababidan paydo bo‘lmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Qoshg‘ariy. Devoni lug‘atit-turk. Toshkent : 1960
2. At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug‘ati turk
3. A. Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn
4. I. Ibrat. Lug‘ati sitta al-sina
5. S. Normamatov. Leksikografiya asoslari. Toshkent:2020